
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2025

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI



ВЕСТНИК
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент

СОДЕРЖАНИЕ	
I-SEKSIA. JARROHLIKNI DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	4
Tolmasov R.T., Yusupova D.H. JARROHLIKNI DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	4
Yo'ldoshev A.N., Tajiboyev Sh.E., Shaumarov A.Z. ENDOSKOPIK SINUS JARROHLIGI: SURUNKALI RINOSINUSITDA SAMARADORLIK VA XAVFSIZLIK TAHLILI	4
Yo'ldoshev A.N., Shaumarov A.Z. LOR SOHASIDA REKONSTRUKTIV 3D-PRINTER TEXNOLOGIYALARINING JORIY ETILISHI: PROTEZLAR VA IMPLANTLAR TAYYORLASH IMKONIYATLARI	5
Yo'ldoshev A.N., Shaumarov A.Z. ENDOSKOPIK SINUS JARROHLIGI: SURUNKALI RINOSINUSITDA SAMARADORLIK VA XAVFSIZLIK TAHLILI	6
Umarov F.H., Irismetov D.M., Shamshimetov D.F., Tadjinazarov M.B., Rustamov F.R. TIZZA QOPQOG'I XONDROMALYATSIYASINI JARROHLIK YO'LI BILAN DAVOLASH USULIMIZ	6
Asatullayev G.Q., Oripov O.I. SHEGREN SINDROMIDAGI QURUQ KO'Z SINDROMINIJARRORHLIK YO'LI BILAN DAVOLASH SAMARADORLIGI	7
Xakimov M.Sh., Ashurov Sh.E., Kushiyev J.X., Jumanazarov A.U., Jumayev A.A. PILORODUODENAL STENOZLARNI DAVOALSHDA ENDOSKOPIK BALLON DILATATSIYANING AHAMIYATI	8
Arabov A.A., Nazarova N.Z., Alieva I.A. QO'L JAROHATLARI VA TRAVMALARIGA BIRLAMCHI YORDAMDAGI XATOLIKLARNI TAHLIL QILISH	8
Nazarova N.B., Rustamova F.O. YOSH BEMORLARDA YURAK ISHEMIK KASALLIGI: XAVF OMILLARI VA OLDINI OLISHDAGI PROFILAKTIK STRATEGIYALAR	8
Ilmuratova M.A., Abdullayeva D.T. ATIPIK QO'ZG'ATUVCHILAR BILAN ZARARLANGAN VA ZARARLANMAGAN BEMORLAR GURUHIDA LABORATOR VA FUNKSIONAL KO'RSATKICHLARNI TAQQOSLASH	9
Rayimov O.V. JARROHLIK INFEKSIYALARIGA QARSHI KURASHDA ANTIMIKROB REZISTENTLIK MUAMMOSI VA YANGI YONDASHUVLAR	10
Tolmasov R.T., Shukurov U.H., Abduxalimov A.A. JARROHLIK SOHASIDAGI ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA INNOVATSION YECHIMLARI	10
Azizov D.H, Muzaffarov O.M. JARROHLIKDA QON YO'QOTISHINING FIZIOLOGIK OQIBATLARI VA QON O'RNINI BOSUVCHI MODDALAR	11
Ergashev B.J. JARROHLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	12
Akbarova D.S, Komolova F.D, Amirqulova M.B. PERIFERIK O'PKA SARATONI (PENKOST)DA OG'RIQ SINDROMI	12
Rayimov O.V. MINIMAL INVAZIV JARROHLIK: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	13
Qadamboyev B.B., Olimova M.M. RUMEX VESICARIUS L. EKSTRAKTI UCH MARTALIK SALBIY KO'KRAK SARATONIDA BCL-2, MTOR VA JNK DARAJALARINI KAMAYTIRISH HAMDA P21 IFODASINI OSHIRISH ORQALI SORAFENIB SAMARADORLIGINI O'RGANISH	14
Sobitova O.A, Mirzamaxmudova G.I, Berdiyev E.A. QIZLARDA O'TKIR GINEKOLOGIK KASALLIKLARNI DAVOLASH VA DIAGNOSTIKASIDA ENDOVIDEOLAPAROSKOPIYANI ROLI	14
Xaydaraliyev S.U., Karimov M.SH., Eshmurzayeva A.A. REVMATOID ARTRIT BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA ISHQORIY FOSFATAZA IZOFERMENTI MIQDORIY O'ZGARISHLARINING SUYAK VA TOG'AY TO'QIMASIDAGI DESTRUKTIV JARAYONLARGA BOG'LIQLIGI	15
Tolmasov R.T., Xudoynazarova S.Sh. UMUMIY JARROHLIK SOHASIDA ZAMONAVIY ANATOMIYA FANINING O'RNI	15
Sayfiddinov Sh.X, Qoriyev S.A. JARROHLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	16
Shahloxon Sh. O'TKIR MIYELOLEYKOZ KASALLIGIDA GEPATOPROTEKTORLAR QO'LLANILISHI	17
Norbekova M.H., Alimhodjayeva L. T., Mirzayeva M.A. KO'P O'CHOQLI SUT BEZI SARATONIDA IKKINCHI O'SMA TUGUNIDA IGH TEKSHIRUVNING KLINIK AHAMIYATI	17
Tolmasov R.T., Muzaffarov O.M.ZAMONAVIY TIBBIYOTDA KINDIK CHURRASINI DAVOLASH USULLARI	18
Tolmasov R.T., Elyorjonov P.J. ZAMONAVIY TIBBIYOTDA UMUMIY JARROHLIK SOHASINING O'RNI	18
SURUNKALI BUYRAK KASALLIGI DIALIZ BOSQICHIDAGI BEMORLARDA CHAP QORINCHA FUNKSIONAL ESHMETOVA S.I., JABBAROV O.O. HOLATINING EXOKARDIOGRAFIK TAHLILI	19
Saxibayev D.P., Rahimzoda T.E., Xabibullayev Sh.A. JIGAR EXINOKOKKOZINI DAVOLASHDAPUNKSION-DRENAJ USULINI QO'LLASHNING TEXNIK TOMONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	20
Xodjibekov M.X., Alisherova M.A. EVALUATION OF BRAIN TUMORS USING MAGNETIC RESONANCE IMAGING IN ADULT PATIENTS	20

Usmonova D.I., Mirzayeva D.B. RISK FACTORS FOR ABNORMAL UTERINE BLEEDING IN WOMEN OF REPRODUCTIVE AGE	*203*
Virmani S., Sattarova K. A. COMPARATIVE EVALUATION OF MATERNAL MICRONUTRIENT SUPPLEMENTATION AND NEONATAL OUTCOMES IN URBAN AND RURAL TERTIARY HOSPITALS OF INDIA AND UZBEKISTAN	*203*
Wahi N. IMPACT OF MATERNAL VITAMIN D STATUS ON PERINATAL OUTCOMES	*204*
Bekbauliyeva G.N., Eshmuradova S.Sh. BIOLOGICAL RISK FACTORS FOR SPONTANEOUS MISCARRIAGE	*204*
Ozodbekova Sitora, Tashmatova G.A. THE IMPACT OF BREASTFEEDING ON THE DEVELOPMENT OF ALLERGIC DISEASES IN CHILDREN	*205*
Alisherova F.A. CHARACTERISTICS OF ULTRASOUND IMAGING OF THE REPRODUCTIVE ORGANS IN 16-YEAR-OLD GIRLS BORN PRETERM	*205*
IV-SEKSIA. PROFILAKTIK TIBBIYOTNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	*207*
Karimova S.B. XORAZM VILOYATI URGANCH TUMANIDA O`TKIR RESPIRATOR KASALLIKLARNING UCHRASHI	*207*
Dustova Gulzoda Komiljonovna. METABOLIK SINDROM VA HAZM TIZIMI A'ZOLARINING O'ZARO ALOQALARI HAQIDA ILMIY DUNYOQARASHLAR	*207*
Xalilova Z.A. MIKOPLAZMA VA XLAMIDIYA INFEKSIYALARI BILAN BOG'LIQ BRONXIAL ASTMA KASALLIGI BOR BOLALARDA ICHAK MIKROBIOTASINING XUSUSIYATLARI	*208*
Abdullayeva D.G., Xaytbayeva Z.M. AQLIY FAOLIYAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI SHAXSLARDA RO'ZA TUTISHNING STRESS DARAJASIGA TA'SIRI	*209*
Akbarova D.S., Komolova F.D.O'ZBEKISTONDA MILLIY TIBBOYOT TIZIMINING RIVOJIDA FARMAKOEKONOMIKANING ROLI	*209*
Abdullayeva D.G., Xaytbayeva Z.M. RO'ZADOR AQLI FAOLIYAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI SHAXSLARDA XOTIRA FAOLIYATINING O'ZGARISHI TAHLILI	*210*
Ergashev B.J. PROFILAKTIK TIBBIYOTNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	*210*
Rayimov O.V. PROFILAKTIK EMLASHLARNI O'Z VAQTIDA AMALGA OSHIRISHNING SAMARADORLIGI	*211*
To'xtasheva Z.A., To'xtasheva F.A., Karimova L.M., Saparbayeva J.S., Abdullayeva D.G. PROFILAKTIK TIBBIYOTNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	*211*
Rahimova N.Q., Gafurov N.N. YO'L-TRANSPORT HODISALARI OQIBATLARINI KAMAYTIRISHDA PROFILAKTIK YONDASHUVNING AHAMIYATI	*212*
Abdullayeva D.G', Xaytbayeva Z.M. RO'ZA VA AQLIY FAOLIYAT: OVQATLANISH TARTIBINING KOGNITIV FAOLLIKKA TA'SIRI	*213*
Tursunov Q.N. SHIFOXONA INFEKSIYALARI: OLDINI OLISH VA HIMOYA CHORALARI	*213*
Bobomuratov T.A., Davletova F.O. ERTA YOSHLI BOLALARDA BRONX-O'PKA KASALLIKLARIDA MIKROSIRKULYATSION BUZILISHLAR VA ULARNING ZAMONAVIY DIAGNOSTIKASI.	*214*
Tolibov D.S., Abdurasulova N.A. BOSH MIYA SURUNKALI ISHEMIYASI I-II-BOSQICHLARIDA SOMATOVEGETATIV SINDROMLAR RIVOJLANISHIDA STRESS OMILINING AHAMIYATI.	*215*
Abdiyeva M.B. Ahmedova N.A. O'SMIR YOSHDAGI BOLALARDA YOG'LI GEPATOZNING TARQALISH CHASTOTASINI ANIQLASH	*215*
Yakubova M.M., Madaminova S.A. SEMIZLIKDAN AZIYAT CHEKAYOTGAN BEMORLARDA UYQU BUZILISHLARINI POLISOMNOGRAFIK BAHOLASH	*216*
Allazarov U.A., Madatov K.A., Ismailov U.S., Matmuratov S.K., Qosimov N.A. O'T TOSH KASALLIGINING NURLI DIAGNOSTIKASI	*216*
Yaqubova M.D. QAYTA IMLANTATSION YETISHMOVCHILIKDA PERIFERIK QONNING NK-HUJAYRALARI: MIQDORI, SUBPOPULYATSIYA TARKIBI VA FAOLLIGI	*217*
Abdijamiev.A.B., Ro'zimova.F.Sh. ISH JOYIDA QO'LLANILADIGAN YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARINING PROFILAKTIK CHORA TADBIRLARINI KLINIK SAMARADORLIGI	*218*
Toshtemirov Sh.Sh., Niyozov N.Q. PROFILAKTIK TIBBIYOTNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI	*218*
Mirzayeva N.Sh., Xudjanov Sh.K. POLIPSIZ SURUNKALI RINOSINUSITNING OLDINI OLISHDA NR3C1, FCER2 VA T2R38 GENLARINING AHAMIYATI	*219*
Xidoyatova R.M., Oripova D.S. SEMIZLIK SABAB YUZAGA KELUVCHI YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARI: EPIDEMIOLOGIK TAHLIL VA PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLAR SAMARADORLIGI.	*219*
Vafoyev I., Muhammedova E. QOQSHOL, GAZLI GANGRENA VA QUTURISH KASALLIKLARINING PROFILAKTIKASI	*220*
Babaxanov X.M., Tursunova L.D. NEFROLOGIK TEKSHIRUVLARDA SISTATIN C NING AHAMIYATI	*221*

di. So'nggi yillarda mikrotomirlarning holatini va turli omillarning ularning faoliyatiga ta'sirini o'rganishning invaziv bo'lmagan holda baholashga imkon beruvchi raqamli biomikroskopiya va lazerli Doppler flowmetri ilmiy tadqiqotlarda samarali usul sifatida foydalanilmoqda.

Kapilyaroskopiya usulida mikrotomirlarning xolatini baxolashda katta natijalarga erishilmoqda. Bu usul yordamida shilliq qavatning rangi tomirlarning qon bilan to'lishi, perivaskulyar qon ketishini aniqlanadi. Shu bilan birga tomirlarning mo'rtligi va qon oqimining sekinlashishi, ampulyar kengayishlar, mikroanevrizmalar va ishemik zonalar qon oqimining notekisligini va distrofik jarayonlarni va boshqalarni ko'rsatadi [Berejanskiy P.V. 2015]. Umuman olganda, mikrotomir tizimi parametrlari turli patologik sharoitlarda tanadagi tizimli va mahalliy o'zgarishlarning diagnostik belgilari sifatida ishlaydi.

Xulosa: O'pkada yallig'lanish jarayonining tugashi mikrosirkulyatsiya buzilishining og'irligining sezilarli pasayishiga olib kelmaydi. Alveolyar qon oqimining spazmi saqlanib qoladi. Mikrosirkulyator buzilishning bir necha oy davomida saqlanishi o'tkir davrda buzilishning hajmi va darajasi bilan bog'liq. Bu davolashning asosiy bosqichlarida mikrosirkulyatsiya holatini tuzatish zarurligini ta'kidlaydi. Klinik amaliyotda mikrosirkulyatsiya buzilishlarini tekshirish imkoniyati mavjud. Kapilyaroskopiya usulida mikrotomirlarning xolatini baxolash bu eng samarali, noinvaziv va eng muximi bronx-o'pka kasalliklarining asoratlarini oldini olishda katta axamiyatga ega bo'lgan usuldir.

BOSH MIYA SURUNKALI ISHEMIYASI I-II-BOSQICHLARIDA SOMATOVEGETATIV SINDROMLAR RIVOJLANISHIDA STRESS OMILINING AHAMIYATI.

Tolibov D.S., Abdurasulova N.A.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Kirish. Bosh miya surunkali ishemiyasi (BMSI) kasalligi hozirgi kunda nevrologik kasalliklar orasida keng tarqalgan va jiddiy sog'liq muammolarini keltirib chiqaradi. Ushbu kasalliklar kognitiv va motor funktsiyalarini pasaytirish bilan birga, bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada yomonlashtiradi. Tadqiqotda somatovegetativ sindromlarning rivojlanishi va stressning bosh miya ishemiyasi kasalliklaridagi ahamiyati o'rganildi. Stress, bemorning adaptatsiya jarayonlariga va umumiy sog'lig'iga ta'sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Maqsad. Tadqiqotning asosiy maqsadi – bosh miya surunkali ishemiyasiga (BMI) chalingan bemorlarda stress darajasi va uning adaptatsiya jarayonlariga tasirini o'rganishdan iborat.

Metod va Materiallar. Tadqiqotda 80 nafar bemor ishtirok etdi. Bemorlar 2 guruhga bo'lingan. 1-guruh BMSI 1-bosqich bilan og'rigan 40 ta bemor, 2-guruh BMSI 2-bosqich bilan og'rigan 40ta bemordan iborat. Bemorlardagi stress darajasini aniqlash uchun PSM-25 testi qo'llanildi, bu test yordamida stressing darajasi kuchli, o'rtacha va past darajalarga ajratildi. Test natijalari asosida bemorlarning stress darajalari va adaptatsiya imkoniyatlari tahlil qilindi.

Natija. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 1-guruh bemorlarida stress darajasi quyidagicha taqsimlandi: 32,5% bemorda past darajadagi stress, 60% bemorda o'rtacha darajadagi stress va 7,5% bemorda yuqori darajadagi stress holatlari kuzatildi. 2-guruh bemorlarida esa 35% bemorda past darajadagi stress, 60% bemorda o'rtacha darajadagi stress va 5% bemorda yuqori darajadagi stress holati aniqlandi. Natijalar asosida guruhlar ichidagi miqdoriy ko'rsatkichlar ikkala guruhda ham o'rtacha darajadagi stress holati ustunlik qilmoqda va bu ko'rsatkich ikkala guruhda ham bir xil miqdorni ifodalamoqda. Past darajadagi stress holati ham bemorlarda ko'p miqdorda kuztilayotganini ko'rish mumkin, bu ko'rsatkich ko'pincha ish yuklamasiga nisbatan adaptatsiya jarayoni ketayotganligini bildiradi va bu BMSI 1-2-bosqich bemorlarning bir qismi nafaqa yoshida emasligi bilan bogliq. Yuqori darajadagi stress holati kam miqdordagi ko'rsatkichlar bilan namoyon bo'lgan.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, BMSI bilan og'rigan bemorlarda stress darajasi asosan o'rtacha va past darajalarda bo'lib, bu bemorlarning ish yuklamasiga nisbatan moslashish imkoniyatlarini aks ettiradi. Tadqiqotdan kelib chiqqan holda, stressni boshqarish va bemorlarning adaptatsiya jarayonlarini yaxshilashga qaratilgan davolash strategiyalarini ishlab chiqish BMSIga chalingan bemorlarning umumiy salomatligini yaxshilashga yordam beradi.

O'SMIR YOSHDAGI BOLALARDA YOG'LI GEPATOZNING TARQALISH CHASTOTASINI ANIQLASH

Abdiyeva M.B. Ahmedova N.A.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Dolzarbligi. Noalkogolli yog'li jigar kasalligi (NAJBP) – bu jigar hujayralarida triglitseridlarning to'planishi bilan tavsiflanadigan kasallik bo'lib, rivojlanish jarayonida uch bosqichdan o'tadi: yog'li gepatoz, steatogepatit va jigar sirrozi**.** Yog'li gepatoz (jigar yog' bosishi) dunyo bo'yicha keng tarqalgan kasallik bo'lib, umumiy aholining taxminan to'rtdan bir qismida uchraydi. Uning paydo bo'lishiga noto'g'ri ovqatlanish, kam harakatlilik, qandli diabet, gormonal almashinuv buzilishi va genetik omillar sabab bo'ladi.

Tatqiqotning maqsadi. Talabalari o'rtasida yog'li gepatozning uchrash chastotasini hamda keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va ularni oldini olish. Kasallikning rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillarni o'rganish (turmush tarzi, ovqatlanish, stress va boshqalar) va talabalarga tushintirish ishlari olib borish.